

SOLIQ TUSHUNCHASI UNING MOHIYATI VA AHAMIYATI

Ismoilova Feruza Kubaymurodovna

Bank Moliya Akademoyasi magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada soliq tushunchsi uning mohiyati va ahamiyati to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan. Soliqni bajaradigan vazifalari va tamoyillari yoritilgan

Kalit so‘zlar: soliq, soliq tamoyillari, soliq tizimi, to‘g‘ri soliq, egri soliq, soliq vazifalari, soliq stavkasi, soliq imtiozi.

THE CONCEPT OF TAX, ITS ESSENCE AND IMPORTANCE

Ismoilova Feruza

Graduate student of Bank Finance Academy

ABSTRACT

This article provides information on the concept of tax, its essence and importance. The duties and principles of taxation are explained

Keywords: tax, tax principles, tax system, direct tax, indirect tax, tax tasks, tax rate, tax relief.

Soliq tushunchasi iqtisodiy kategoriya sifatida sinfiy hukmron kuch sifatida yuzaga chiquvchi davlatning paydo bo‘lishi va uni faoliyatining davomiyligi bilan bevosa bog‘liqdir. Shu o‘rinda soliq kategoriysi davlatni iqtisodiy siyosati orqali iqtisodiy voqiylik sifatida yuzaga chiqishini ta’kidlash lozim. Soliq tushunchasi bu tor ma’noda davlat ixtiyoriga boshqalardan majburiy tartibda undiriladigan pul tushumlarini ifodalaydi. Ma’lumki, soliqlar bevosa davlatning paydo bo‘lishi bilan bog‘liqdir, ya’ni davlat o‘zining vakolatiga kiruvchi vazifalarni bajarish uchun moliyaviy manba sifatida soliqlardan foydalanadi. Soliqlarning ob’ektiv zarurligini iqtisodiyotni erkinlashtirishi sharoitida ikki holat bilan ifodalash mumkin: birinchidan, davlatning qator vazifalarini mablag‘ bilan ta’minlash zarurligi, ikkinchidan, bozor iqtisodiyoti qonun- qoidalari.

Davlatning bajaradigan funktsiyalari va vazifalari ko‘p va bozor iqtisodiyoti rivojlanma borishi bilan ba’zi ijtimoiy himoyalangan bozor munosabatlariga mos kelmaydigan vazifalar yo‘qola borsa, yangi vazifalar paydo bo‘la boshlaydi. Iqtisodiyotni erkinlashtirishi sharoitida davlatning yangi vazifalari paydo

bo‘ladi. Bularga bizning respublikamizda kam ta’minlanganlarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish, bozor iqtisodiyoti infratuzilmasini (sanoatda, qishloq xo‘jaligida, moliya tizimida) tashkil qilish kiradi. Shu erda davlat kuchli sotsial siyosat tadbirilarini amalgalash uchun pensionerlar, nafaqaxo‘rlar, talabalar, ko‘p bolali onalar va boshqalarni ko‘proq mablag‘ bilan ta’minlash zarurligini anglab cheklangan tovarlar bahosidagi farqni byudjet hisobidan qoplaydi va ularga boshqa xarajatlarni davlat hisobidan amalgalash uchun ham ko‘plab mablag‘ yo‘naltirishga majbur. Bunday xarajatlarni amalgalashning majburiyligi ular uchun manba bo‘lgan soliqlarni ham ob’ektiv zarur qilib qo‘yadi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston davlati jamiyat a’zolari osoyishtaligini saqlash maqsadida o‘zining mudofaa qobiliyatini saqlab va mustahkamlab turishga, texnika va o‘q-dorilarga ham mablag‘lar sarflaydi, qolaversa, davlat fuqarolar xavfsizligini saqlash, mamlakatda tartib intizom o‘rnatish, uni boshqarish funktsiyalarini bajarish uchun ham ko‘plab mablag‘ yo‘naltirishga majbur. Bunday xarajatlarni amalgalashning majburiyligi ular uchun manba bo‘lgan soliqlarni ham ob’ektiv zarur qilib qo‘yadi.

Soliqlar majburiy to‘lovlarni ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildiradi. Bu munosabatlar soliq to‘lovchilar (huquqiy va jismoniy shaxslar) bilan ularni o‘z mulkiga aylantiruvchi davlat o‘rtasida bo‘ladi. Korxona va tashkilotlar aholiga xizmat ko‘rsatganda, ishlar bajargan yoki bozorlarda oldi-sotdi qilish jaraenida pul munosabatlarini hosil qiladi. Lekin ular soliq bo‘la olmaydi, soliq munosabati bo‘lishi uchun davlat mamlakatda yaratilgan mahsulot qiymatini taqsimlash yo‘li bilan davlat byudjetiga majburiy tartibda to‘lanishi yoki undirilishi lozim.. Davlat uchun byudjetning asosiy manbai hisoblangan soliqlar katta ahamiyatga ega.

Soliqlar to‘g‘risidagi qarashlar tarixan ob’ektiv va sub’ektiv omillarning ta’sirida shakllangan. Soliqlarga doir turli ta’riflarni tahlil qilish ularning konkret iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotlar jarayonidagi mohiyatini asoslash, soliqlarning iqtisodiy rolini va soliq qonunchiligidagi asos bo‘lgan soliq tamoyillarini belgilash hamda soliq tizimida, jamiyat taraqqiyotida mavjud bo‘lgan soliqlarning tutgan o‘rnini aniqlash zarurdir. Chunki, davlat paydo bo‘lishi bilan soliqlar jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarning zaruriy talabalaridan biri bo‘lib hisoblanib kelingan. Davlat tuzilish shakllarini rivojlanishi bilan bir vaqtida soliq tizimi o‘zgargan va takomillashtirilgan. Soliq tizimining o‘zgarishi va takomillashtirilishi soliqlarning turlari, miqdorlari va yig‘ib olish usullari xilma-xil bo‘lganligi bilan asoslanib kelingan. Masalan, Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti tarixida soliqlar aholidan shaxsiy mol-mulk, erdan olingan hosil, uy hayvonlari va boshqalar uchun «zakot» sifatida olingan.

Soliqlar, yig‘imlar, bojlar va boshqa to‘lovlardan hisobiga davlat moliyaviy resurslari tashkil topadi. Davlat faoliyatining barcha yo‘nalishlarini mablag‘ bilan ta’minlashning asosiy manbalaridan biri va davlat ustuvorligini amalgalashning iqtisodiy vositasi soliqlardir. Soliq tizimini tartibga solish va mukammallashtirish

samarali davlat iqtisodiy siyosatini olib borishga, xususan, moliyaviy tizimni rivojlantirishga yordam beradi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan soliqlar orqali tartibga solish, davlat byudjetini shakllantirish, soliq solish vositasida jamiyatdagi u yoki bu jarayonlarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi usuli hisoblanadi. Shunday qilib, davlatning mavjudligi soliqlar bilan uzviy bog'liq, chunki soliqdan tushadigan tushumlar davlat iqtisodiy mustaqilligining bosh manbaidir. Soliqlar eng muhim iqtisodiy kategoriya bo'lib, tarixan davlatning paydo bo'lishi, mavjudligi va faoliyati bilan bog'liq. Pul resurslarini safarbar qilish usuli, tabiat va ko'lami va ularni sarflash tegishli davlatni tug'dirgan jamiyatning iqtisodiy rivojlanish bosqichiga bog'liq.

Soliq moliyaning asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, uni bir vaqtning o'zida iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy hodisa sifatida ko'rib chiqish kerak. Soliqlar jamiyat rivojlanishining etarlicha yuqori darajasida vujudga keladi, soliqlarning ko'plab ta'riflari mavjud. Davlat iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatishning turli iqtisodiy, moliyaviy, pul va ma'muriy usullaridan foydalanadi. Davlat qo'lidagi bir necha iqtisodiy dastaklardan biri bo'lib qolgan soliq tizimi o'zaro qarama-qarshi va shuning uchun murakkab vazifalarni hal qilishi kerak: barcha darajadagi byudjetlarning davlat xarajatlari va ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish uchun etarli miqdorda tushumlar tushishini ta'minlash; ishlab chiqarish hajmining o'sishini rag'batlantirish; ustuvor yo'nalishlarni aniq belgilab, butun ishlab chiqarish sohasini qayta qurish jarayoniga qat'iy ta'sir ko'rsatish; yangi sharoitlarga moslashish imkoniyatlari minimal bo'lganlarga (nogironlar, pensionerlar, ko'p bolali oilalar) yordam ko'rsatish.

Soliqlar yangi iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishning eng samarali vositasiga aylanmoqda. Oqilona soliq tizimi milliy, mintaqaviy, mahalliy va xususiy manfaatlar mutanosibligini ta'minlashi, ishlab chiqarish, tadbirkorlik va investitsiya faolligini rivojlantirishga ko'maklashishi kerak. Soliqlar va yig'imlar jismoniy va yuridik shaxslardan ko'paytirilgan takror ishlab chiqarishni ta'minlash uchun undiriladigan to'lovlarning majburiy ekvivalenti sifatida davlat iqtisodiyotidagi inqirozli hodisalarning og'irligini yumshatish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun rag'batlantirish uchun mo'ljallangan.

Soliqlar davlat mazmunidan tashqari moddiy asosga ega bo'lib, ular pul daromadining, milliy daromadning davlat tomonidan begonalashtirilgan qismini ifodalaydi. Turli darajadagi byudjetlarning daromad qismida soliqlar salmoqli ulushga ega. Soliq tushumlarini turli darajadagi byudjetlarga va budgetdan tashqari jamg'armalarga o'tkazish O'zbekiston Respublikasining soliqlar va yig'imlar to'g'risidagi qonun hujjatlari tizimida, shuningdek soliqlar va yig'imlar to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlarda amalga oshiriladi.

Undirish usuliga ko'ra, to'g'ri va egri soliqga bo'linadi. To'g'ri soliq molmulk va daromadga bevosita joriy qilinadi va soliq to'lovchi tomonidan oraliq vositachilarsiz

to‘lanadi. Keng tarqalgan turlari: qo‘shilgan qiymat solig‘i, daromad solig‘i, meros hamda hadya solig‘i, tovar aylanmasi solig‘i, savdo solig‘i, eksportimport solig‘i va boshqa Egri soliq (aksizlar) tovar (xizmat)lar narxlariga yoki tariflarga kiritish mo‘ljallangan va keyinchalik tovarlar iste’molchilariga yuklanadigan Soliq Davlat tuzumi xususiyatlariga ko‘ra, Soliq tizimi umum davlat (markaziy) va mahalliy (ma’muriy-hududiy birliklar) Soliq va yig‘imlardan tashkil topadi.

Davlat tomonidan undirilgan Soliq byudjet vositasida qayta taqsimlanib, soliq to‘lovchilarga sog‘liqni saqlash, maorif, ilm-fanni rivojlantirish, mudofaa, xuquqni muhofaza qilish kabi ijtimoiy zarur davlat xizmatlari orkli bilvosita yo‘llar bilan qaytadi.

Soliq yordamida milliy daromadning tegishli qismi taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi. Davlat tomonidan olinadigan soliqlar hamda ularning tashkil qilinish shakl va usullari birgalikda soliq tizimini tashkil qiladi. Milliy iqtisodiyotda soliqlar quyidagi uchta muhim vazifani bajaradi:

1. Davlat xarajatlarini moliyalashtirish (fiskal vazifasi);
2. Ijtimoiy tanglikni yumshatish (ijtimoiy vazifasi);
3. Iqtisodiyotni tartibga solish (tartibga solish vazifasi).

Davlat sarflari soliq tushumlari hisobiga amalga oshsada, davlat sarflari miqyosining o‘sishi o‘z navbatida soliqlarning o‘sishini taqozo qiladi va uning darajasini belgilab beradi. Hozirgi davrda umumiy tendensiya bo‘lgan davlat sarflarining va shunga mos ravishda soliq hajmining o‘sib borishini quyidagi omillar taqozo qiladi:

- aholi sonining o‘sishi.
- ijtimoiy soha xizmatlari sifatiga talabning ortishi va urbanizatsiya.
- atrof-muhitning ifloslanishi.
- daromadlar tengsizligini qisqartirish dasturlarini amalga oshirish.
- milliy mudofaa, davlat xavfsizligini ta’minlash xarajatlari hajmining o‘sishi.

Korxonalar faoliyatini soliq yordamida tartibga solish quyidagi umumiy tamoyillari asosida amalga oshiriladi:

- barcha daromadlardan, ularning manbalariga bog‘liq bo‘lmagan holda soliq undirishning majburiyligi;
 - soliq undirishda barcha uchun yagona umum davlat siyosati;
 - samarali ishlovchi korxonalarda hamda xo‘jalik yuritishning ilg‘or shakllari uchun -soliq me’yorlarining rag‘batlantiruvchi rolini ta’minlash;
 - soliq to‘lovi bo‘yicha barcha sub’ektlar majburiyati ustidan moliyaviy nazorat.
- Soliq stavkasini belgilash bir qator tamoyillarga asoslanadi:

1.Naflilik tamoyili — turli shaxslardan, ularning soliqlar hisobiga moliyalashtiriladigan dasturlardan foydalanishi darajasiga qarab turlicha soliq undirilishi kerakligini bildiradi.

2.To‘lovga layoqatlilik tamoyili — soliq miqdori soliq to‘lovchining boyligi va daromadlari darajasiga mos kelishi zarur. Boshqacha aytganda, soliq solish daromadlarningadolatli taqsimlanishini taqozo qilishi zarur.

3.Aadolatlilik tamoyili — daromadlari va hukumat dasturlaridan foydalanish darajasi bo‘yicha teng bo‘lgan kishilar teng miqdorda soliq to‘lashi zarur.

Soliq bo‘yicha imtiyozlar qonunchilik bitimlarida belgilangan tartib va sharoitlar asosida o‘rnataladi. Amaliyatda soliq imtiyozlarining quyidagi turlari keng tarqalgan:

-ob’ektlarning soliq olinmaydigan eng kam darajasini belgilash;

-soliq to‘lashdan alohida shaxs yoki ma’lum guruhlarni (masalan, urush fahriylarini) ozod qilish;

- soliq darajasi stavkasini pasaytirish;

- soliq olinadigan summadan chegirish;

- soliqli kredit (soliq olishni kechiktirish yoki soliq summasini ma’lum miqdorga kamaytirish).va uni hizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat o‘zining ichki va tashqi vazifalarini, har xil ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan mablag‘larning asosiy qismini soliqlar orqali to‘playdi. Jumladan, soliqlar respublika va mahalliy budgetlar daromadlarini shakllantiradi, davlat ijtimoiy dasturlari uchun moliyaviy negiz yaratadi, soliq to‘lovchi shaxslarning tadbirkorlik faoliyatini boshqaradi, ularning tabiiy resurslardan unumli foydalanishga bo‘lgan intilishini rag‘batlantiradi, narx belgilashga ta’sir ko‘rsatadi, aholining turmush darajasini tartibga solib turadi, imtiyozlar yordamida esa aholining kam ta’minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishni tashkil etishga yordam beradi.

REFERENCES:

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi.-T.:”Adolat”, 2022
2. Jo‘raev A., Shirinov S. Soliq statistikasi va prognozi. O‘quv qo‘llanma. / “IQTISOD-MOLIYA”-T.: 2015y
3. Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot. / “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” ., 2005y. -544 b.
4. Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. –T.: Akademiya, 2002. -204 b.
5. Meyliev O.R. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda soliqlarning o‘rni. - T.: Tamaddun, 2013.-136 b.
- 6.<https://uz.wikipedia.org/wiki/Soliq>